

# **Termizda daryo qirg'oqlariga chiqindi to'kilayotgani aniqlandi**



Termizda daryo qirg'oqlariga chiqindi to'kilayotgani aniqlandi

Termiz shahar Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limi va Milliy gvardiya xodimlari tomonidan nazorat reyd tadbiri o'tkazildi.

O'tkazilgan reyd tadbiri davomida shaharning "Guliston" mahallasi hududidan oqib o'tuvchi Surxon daryosining qirg'og'iga fuqaro D.R. o'z boshqaruvida bo'lgan yuk mashinasida qurilish chiqindilarni to'kkaligi aniqlandi. Aniqlangan holat yuzasidan huquqbuzarga nisbatan ma'muriy bayonnomasi rasmiylashtirilib O'zbekiston Respublikasi MjtKning 91prim-1 moddasiga asosan bazaviy hisoblash miqdorining uch barobari 810 000 so'm miqdorida ma'muriy jarima belgilandi.

Surxondaryo viloyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi Axborot xizmati.



Image not found or type unknown

